Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVIROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI.....	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIY MEKANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI.....	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI



Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d.
mirzayevkulmamat@gmail.com.



Saparov Murod Irgashovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishda bandlik bilan ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar va muammolar tadqiqi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: hudud, bank, kichik tadbirkorlik, biznes reja, moliya, qishloq joylar, ishlab chiqarish, korxonalar, bandlik.

Abstract. This article examines the factors and issues affecting employment in the service sector and offers recommendations for ensuring employment of the working-age population, reducing unemployment, and regulating the labor market in the context of economic liberalization.

Key words: region, bank, small business, business plan, finance, rural area, production, enterprise, employment.

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы и проблемы, влияющие на занятость в развитии сектора услуг, и предлагаются рекомендации по обеспечению занятости населения трудоспособного возраста, снижению безработицы и регулированию рынка труда в контексте экономической либерализации.

Ключевые слова: регион, банк, малый бизнес, бизнес-план, финансы, сельская местность, производство, предприятие, занятость.

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib bormoqda. Zero, mehnat salohiyatidan foydalanish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy hayotini yaxshilash taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim manbasi bo'lib hisoblanadi.



Davlatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash orqali faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ustuvor yo'nalishlar mamlakatimizni "Daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirishi uchun asos bo'ladi deb uylaymiz.

Barchamizga ayonki, islohot – bu yangilanish va o'zgarish ishlarning natijadorligi uchun ma'suliyatni yanada teranroq his qilish deganidir. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun avvalo boshqaruv tizimi, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarish kerak. Insonlarning dunyoqarashi o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi, yangilanadi va shu asnoda Yangi O'zbekiston poydevori mustahkamlanadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi, avvalo barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgandir. Mamlakatimizning makroiqtisodiy barqarorligi – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevori bo'lib hisoblanadi. Kelgusidagi iqtisodiyotning kamida 5 foizga o'sishi, byudjet defisiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foizdan oshmasligi nazarda tutilgan.

O'zbekistonda fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ish bilan ta'minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash borasida izchil davlat siyosati amalga oshirib kelinmoqda. Hozirgi kunda aholining bandlik muammosini hal qilishning uchta ko'rinishi mavjud:

- birinchidan, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlarga ish izlayotganlarni jalb etish;
- ikkinchidan, xususiy shaxslarga tegishli bo'lgan korxonalarga ish izlayotganlarni jalb etish;
- uchinchidan, o'z-o'zini ish bilan band etish.

Qishloq aholisi bandligini ta'minlash va qishloq mehnat bozorini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri katta, chunki kichik tadbirkorlik yangi korxonalar va ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligini, bozorni turli-tuman tovar va xizmatlar bilan to'ldirib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Quyidagi olimlar o'z tadqiqotlarida xizmatlar sohasini rivojlantirishda bandlik bilan ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar va muammolarni o'ziga xos jihatlari tahlilini ko'rib chiqdilar.

Buyuk faylasuf Aflotun davlatni tabiatning o'zi hosil qilgan odamlar jamoasi deb hisoblagan va u birinchi marta aholini ikki qismga bo'lish muqarrarligi haqida fikr bildirdi: boy va kambag'al. Biroq, Platon ilmiy tashkil etilgan jamiyat adolat tamoyillarini amalga oshirishi, ijtimoiy barqarorlik va ichki intizomni ta'minlashi kerakligini ilgari surdi, shuningdek qambag'allikdan chiqarish bo'yicha harakat, inson hayoti davomida farovon yashash uchun intilishi odatiy hol sifatida qabul qilishgan va uni qo'llab-quvvatlash lozim deb hisoblashgan¹(2021)

BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma»sida: Kambag'allik - esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik - bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi deyilgan (2017-yil Nyu-York, Jeneva).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Bosh ilmiy xodimi Baxtishod Xamidov² - kambag'allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa – insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'liqni-saqlash sohasidagi to'siqlarning doimiy doirasini tushunishadi, deb ta'kidlagan.

Professor M.Muhammedov fikricha "Kambag'al aholi deganda ikki toifani nazarda tutish mumkin, birinchi toifa kambag'al aholi – bu o'z hayotini tuzatishni istamaydigan, istasa-da, bunga harakat qilishga dangasalik qiladiganlar. Ikkinchi toifasi esa ma'lum sabablar tufayli shunday holga kelib qolgan, ishlashni istaydigan, ammo ba'zi sabablar bilan bunga imkon topolmagan insonlardir" deb ta'kidlaydi.

1 Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 4 (2021) / ISSN 2181-1415
Candidate of Economic Sciences, Associate Professor of Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan.

2 Ўзбекистонда камбағаллик даражаси. Камбағалликни камайтириш учун нима қилиш керак? Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази Бош илмий ходими Бахтишод Хамидов <https://review.uz/oz/post/uzbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>



Professorlar M.Pardayev, O.Pardayevlarning fikricha “Kambag‘allik toifasiga kiradigan aholini uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi ishsizlar, tegishli malakasi bor, ammo o‘zlariga munosib ish topa olmayotgan aholi. Ikkinchi toifaga, ish bilan band, ammo olgan oylik maoshi oilasini kambag‘allik chegarasidan chiqib ketishiga yetarli bo‘lmaydigan shaxslar. Uchinchisi, ishlash imkoniyati yo‘q (nogironligi bor, mehnatga qobiliyatsiz, boquvchisi yo‘q bolalar va qariyalar) aholi qatlami”

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola qishloq mehnat bozorlari amal etishining mazmun qonuniyatlari va xususiyatlarini tahlil etish ularni davlat tomonidan tartibga solinishi, aholining ish bilan samarali bandligini ta‘minlash uchun ish kuchiga talab va uning taklifi, mehnat bahosiga ta‘sir ko‘rsatadigan ta‘sirchan mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan jarayonlarini qiyosiy rivojlantirishga oid turli xil yondoshuvlar umumlashtirilgan holda o‘rganildi, hamda xulosalash asosida amaliyotda yaxlit qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur sohani rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirish bu boradagi muhim jihat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Iqtisodiy strategiyaning muhim bandi – 2030-yilga qadar munosib haq to‘lanadigan 10 millionta yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030-yilda 5,2 foizga, inflyasiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga erishamiz”.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2017-yildagi 2,7 milliard dollardan 2018-yil 4,0 milliard dollarga ko‘tarilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2019 – 2020-yillarda mos ravishda 5,2 va 5,0 milliard dollarni tashkil etgan. 2021 yil yakunida esa mintaqaviy savdo-sotiq miqdori 6,4 milliard dollarga etib, besh yillik umumiy natija 23,3 milliard dollarga teng bo‘ldi. Ko‘rinib turibdiki, o‘tgan besh yil mobaynida tashqi savdo aylanmasi qariyb ikki yarim barobar o‘sgan.

Mamlakatimizning iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash orqali aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni -1,6 barobar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish ko‘zda tutilgan. Yangi O‘zbekiston strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun yillik inflyasiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizga pasaytirish. Mamlakatda davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish hamda 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 3 foizdan oshib ketmasligini ta‘minlash muhim shartlardan biridir.

Bundan tashqari, kichik korxonalar bozor kon‘yukturasidagi o‘zgarishlarni darrov ilg‘ab, investision jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib, yangi texnologiyalar bazasida ish o‘rinlari tashkil etib, ishchi kuchining sifat va malaka darajasiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Hududlardagi mahalliy hokimiyatlar tomonidan barcha hududlarda, ayniqsa, olis va borish qiyin hamda mehnat resurslari ortiqcha bo‘lgan tumanlarda bank xizmati turlarini kengroq targ‘ib qilish, shuningdek hududiy dasturlarga kiritilgan loyiha tashabbuskorlariga yaqindan amaliy yordam berish maqsadida aholi bilan ochiq muloqotlar o‘tkazilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qonun hujjatlari, ularga muvofiq yaratilgan imtiyozlar, soha sub‘yektlari uchun kreditlar ajratish shart-sharoitlari yuzasidan joylarda manfaatdor vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy uchrashuv va seminarlar tashkil etib borilmoqda.

Tijorat banklari kichik tadbirkorlik sub‘yektlarining biznes rejalarini faol moliyalashtirish bilan mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlari tashkil etishga yo‘naltirilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shib boraveradi.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda qishloq mehnat bozorlari amal etishining mazmun qonuniyatlari va xususiyatlarini tahlil etish ularning davlat tomonidan tartibga solinishi, aholining ish bilan samarali bandligini ta‘minlash uchun ish kuchiga talab va uning taklifi, mehnat bahosiga ta‘sir ko‘rsatadigan ta‘sirchan mexanizmlarni shakllantirish obyektiv zarurat ekanligidan yaqqol dalolat bermoqda. Mehnat bozorida ro‘y berayotgan jarayonlarga aralashmaslikni targ‘ib etuvchi turli ilmiy nazariyalar mavjudligiga qaramasdan taraqqiy etgan davlatlar amaliyotida, aksincha, bu bozorga ta‘sir ko‘rsatishni kuchaytirish, uni tartibga solishning samarali usul va shakllarini izlab topishga intilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda Samarqand viloyatida to‘liq bandlikka erishish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kezi kelganda aytish joizki, doimiy ish joyiga ehtiyojmandlarning katta qismi Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy siyosat samaradorligini



oshirish, aholi bandligini hududlar miqyosida hal etishga qaratilayotganligi hech birimizga sir emas. Misol uchun, mehnat bozori ehtiyojlari hisobga olingan holda, har yili ish joylarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga doir dastur qabul qilinayapti. Ushbu dastrular iqtisodiyot tarmoqlari, hududlarni rivojlantirish dasturlariga muvofiq ishlab chiqilayotgani tufayli yangi ish joylarining salmoqli qismi qishloq joylarida yaratilmoqda. Bunda yangi ob'yektlar, asosan, mehnat resurslari ko'p bo'lgan hududlarda foydalanishga topshirilayotgani, sanoat korxonalari modernizatsiya qilinib, qo'shimcha quvvatlar ishga solinayotgani, shuningdek, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini taraqqiy ettirish, infratuzilma, kommunikatsiya hamda uy-joy ob'yektlari qurilishi ko'lamini oshirish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik, dehqon-fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish chora-tadbirlarining ro'yobga chiqarilishi hisobidan ming-minglab ish joylari paydo bo'lmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar ko'lami 2017 – 2021-yillarda ham jadal davom ettirilib, umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan 649 ta investisiyaviy loyiha qamrab olingan tarmoq dasturlarini hayotga tatbiq etish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotlari tayyorlash hajmi 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha ortadi.

«Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish masalalari oldingi o'rniga chiqmoqda. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash. Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investisiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish vazifalari oldingi o'ringa chiqmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash. Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish. Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish. Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish masalalari asosiy o'rin tutadi.

Bu aholini, ayniqsa, yosh mutaxassislar bandligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish uchun katta imkoniyatdir. Faqat ta'lim muassasalari, shu jumladan, kasb-hunar kollejlarni oqilona joylashtirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir hududning zarur mutaxassislarga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlash lozim.

Shu bilan birga, tegishli vazirlik hamda idoralar bilan hamkorlikda "Yangi ish joylarini barpo etish, ro'yxatdan o'tkazish va rasmiy xisobotga kiritish tartiblari"ni ishlab chiqish vaqti keldi. Bu jarayonni tasodifan emas, balki me'yoriy-huquqiy va moliyaviy talablar asosida olib borishni tashkil etish zarur. Ya'ni fuqarolarning har bir mehnat joyi pasporti ro'yxatga olinishi, maxsus shakldagi akt bilan qabul qilinishini amaliyotga joriy etish kerak.

Mehnat bozorida faol hamda aniq maqsadga qaratilgan shu kabi chora-tadbirlar aholi bandligini ta'minlash, real daromadlarini oshirish, pirovardida hayot darajasini yuksaltirishga mustahkam poydevor yaratadi. Binobarin, aholini ish bilan ta'minlash mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Uning o'z vaqtida hal etilishidan barcha birdek manfaatdordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, A. Research on the nature and causes of the wealth of nations / A. Smith. - M.: Sotsekgiz, 1962. - 333 p;
2. Porter, M. International competition / M. Porter; per. from English.: ed. and with a preface by V.D. Shchetinin. - M.: International relations, 2004. - 896 p;
3. Glichev, A.V. Essays on the economy and organization of product quality management/A.V. Glichev. Essay 5. Needs, demand, quality and marketing // Standards and quality. - 1994. - No. 12. - P. 19 - 24;
4. Zavyalov P.S., Demidov V.E. Formula for success: marketing.-M.: "International relations", 1991. - With. 250;
5. Rubin Yu.B. Competition: orderly interactions in professional business. Questions of Economics.2007;(4): 152-156;
6. Fashiev Kh.A. Popova E.V. How to measure the competitiveness of an enterprise//Marketing in Russia and abroad. - 2003. - No. 4. - p. 53-68;
7. Marketing: Textbook for universities / N.D. Eriashvili, K. Howard, Yu.A. Tsyppin and others; Ed. N.D. Eriashvili. - 3rd ed., revised. and additional – M.: UNITI-DANA, 2003;
8. Lachueva, Karina Shamilyevna. Methodological bases for managing the competitiveness of construction products and services. Abstract of the dissertation for the degree of Ph.D. Makhachkala, 2004, 26 pages;
9. Babenchuk Kristina Alexandrovna. Management of the competitiveness of construction organizations (on the example of housing construction in Samara) Abstract of a dissertation for the degree of Ph.D. St. Petersburg, 2007, 18 p;
10. Magerramova Irada Alim Kyzy. Methodological bases for managing the reliability and competitiveness of construction organizations. Abstract of the dissertation for the degree of Ph.D. St. Petersburg, 2006, 20 pages;



11. Ablyayev Rinat Yusefovich. Ensuring the competitiveness of construction products based on innovative solutions;
12. Selyutina L.G. Competitive processes in modern construction // Bulletin of INGECON. Series: Economy. 2013. No. 1 (60). ps. 101–106.
13. Mamatkulova Sh. J. (2021).The role and importance of marketing tools in improving the efficiency of manufacturing enterprises. Archivist, 7(2 (56));
14. Ozodbek Jumakulov. WAYS TO IMPROVE THE FINANCING OF INVESTMENT ACTIVITIES OF ENTERPRISES. [Vol. 21 No. 3 \(2022\): Journal of Academic Leadership](#);
15. Ozodbek Jumakulov. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IS ONE OF THE MAIN FACTORS OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH. [Vol. 21 No. 3 \(2022\): Journal of Academic Leadership](#);



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>